

DOI: <https://doi.org/10.5281/zenodo.10858947>

## MUSTAQILLIK DAVRI ASARLARIDA “INSON RUHIYATI” TALQINI

(“Pakananing oshiq ko‘ngli” qissasi va  
“Shamolni tutib bo‘lmaydi” hikoyasi misolida)

**Dinora Komiljonova**

JDPU o‘zbek tili va adabiyoti fakulteti talabasi

**Nigora Kiryigitova**

JDPU o‘zbek tili va adabiyoti kafedrasida o‘qituvchisi

### ANNOTATSIYA

*Ushbu maqolada mustaqillik davrida yaratilgan asarlarda “inson ruhiyati” ning aks etishi bayon qilingan. Bunday voqelik adabiyotimizning ma’lum bir davrlarida yaratilgan inson omilining yangicha talqinida namoyon bo‘ladi.*

**Kalit so‘zlar:** *Inson ruhiyat, Tersotaliklar, kinoqissa, yumor, ziddiyat*

### АННОТАЦИЯ

*В данной статье описывается отражение «человеческого духа» в произведениях, созданных в годы независимости. Эта реальность отражается в новой трактовке человеческого фактора, созданной в определенные периоды нашей литературы.*

**Ключевые слова:** *Человеческий дух, терсотуанцы, новелла, юмор, конфликт*

### ABSTRACT

*This article describes the reflection of the “human spirit” in the works created during independence. This reality is reflected in the new interpretation of the human factor created in certain periods of our literature.*

**Key words:** *Human spirit, Tersotians, short story, humor, conflict*

Adabiyot misoli erkin qush. Bu qushni tutqunlikda saqlashning foydasi yo‘q, chunki uning sayrashini to‘xtata olmaymiz. Bu qush yurtimiz mustaqillikka erishgandan so‘ng shunday baland parvoz qildiki, u o‘z parvozi orqali adabiyotning haqiqiy kuchini ko‘rsatdi. Yurtimizdagi mustaqillik adiblarimizga katta imkoniyatlar eshigini ochdi. Xususan, shunday davrda yaratilgan asarlarni mash‘um qora asrimiz bo‘lgan Sho‘ro davridagi asarlarga qiyoslaydigan bo‘lsak, kun va tun qadar farq qiladi.

Ma‘lum bir vaqt adabiyotimiz qorong‘u tun og‘ushida qoldi. Shu qorong‘u tunda yaratilgan asarlar go‘yo til-zabonsiz inson kabi. Lekin bu qorong‘u tun o‘rnini yorug‘ kunlar egallaydi. Mustaqillikka erishganimizdan so‘ng yaratilgan asarlarda eng avvalo inson ruhiyati, erkinligi, orzu-umidlar talqin etiladi. Shunday asarlarni yaratgan ijodkorlardan Erkin A‘zam va Nazar Eshonqul barcha kitobxonlar uchun sevimli. Bu yozuvchilar o‘z asarlarida inson ruhiyatiga juda katta e‘tibor qaratganlar. O‘z asarlari orqali xalqimiz qalbida qolgan Erkin A‘zam haqida fikr yuritar ekanmiz, uning “Pakananing oshiq ko‘ngli” qissasi biz uchun yangiliklardan biri. Bu asarni o‘qimagan kishi albatta shu qissa asosida yaratilgan kinoqissani ko‘rgan. Bu asar asosida kinoqissa yaratilgani nafaqat yozuvchining, balki butun xalqimizning yutug‘i. Negaki, bir quyosh nuridan yosh-u qari bahramand bo‘lgan. Bunga tanqidchilarimiz ham ijobiy fikr bildiradilar. Masalan: f.f.d professor Dilmurod Quronovning fikricha: “epik janrning kino ta‘sirida shakllangan modifikatsiyalari - kinoetyud, kinohikoya, kinoqissa, kinoroman kabilar ham adabiyot mulkida fuqarolik olishga haqli.[1] Bu asardagi bosh qahramon Pakana obrazi insonning ichki ruhiyatini juda keng ochib bergan desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Orzumand Pakana har doim o‘z orzulari bilan band. U ajoyib rassom. Orzusidagi qiz rasmini takror va takror chizgan qobiliyatli ijodkor. Ammo falak gardishi bilan oddiygina, unchalik ham chiroyli bo‘lmagan qizga uylanadi. Uning yagona orzusi - bo‘yini o‘stirish. Bu – o‘ziga xos, yumorga, ichki ziddiyat, murakkablik, qiziqarli tafsilotlarga boy asar. Bu asarda inson ruhiyati, uning erkinligi, har doim o‘z orzulari bilan yashashi, shu orzular yo‘lida turfa ishlarni qilishi asardagi o‘ziga xos yumor. Masalan bir jumlaning o‘zini barvasta-yu basavlat deb bilmasada, harqalay hiylagina ulug‘vor hisoblardi. ( Ko‘nglida albatta )”[2] bu

jumladan ko‘rinib turibdiki, inson ruhiyati o‘zidagi kamchilikni hech qachon qabul qila olmaydi, aqlan qabul etsa ham, huddi qahramon Pakana kabi ko‘ngilda buni kamchilik hisoblamaydi. Bu o‘ziga xoslikni adib qahramon Pakana tilidan hikoya qilmoqda.

Olimlar inson ruhiyatiga turli tasnif bersalar ham, ammo ba’zi jihatlar borki, bu jihatlar barchada bir xil. Masalan: o‘z orzulari uchun tinimsiz harakat qilish, o‘z me’yoridagi husnga ega bo‘lish, erkinlik va shu kabi ruhiyatimizni bezab turgan mezonlarni Pakana obrazi bizga dalillab beradi. Asarda e’tibor qilishimiz lozimki, Pakana o‘z bo‘y bastini kichikligini bilar, uning aqli ham binoyidek edi. Lekin u o‘zidan baland qizlarga oshiq bo‘lardi. Ya’ni inson aqli va hissi har doim mos kelmasada bu ruhiyatni ifodalab berish uchun ajoyib vosita. Bunga yana bir dalil quyidagi fikr: "Biz aql va hisni bir-biriga ko‘pincha zid qo‘yamiz, holbuki, bu narsa vujudimizda aql va hisning bir paytda mavjud bo‘lishiga, ikkisinin birlikda inson ruhiyatini tashkil etishiga xalaqit bermaydi.[3] Erkin A’zam Pakana obrazini tasvirlar ekan, u yashayotgan muhitni ham hisobga olgan. Agar Pakananing yon atrofidagi barcha insonlarning bo‘y basti ham Pakananikiga o‘xshaganda, hech qachon bu asarda inson ruhiyati aks etmagan bo‘lardi.

Chunki Izzat Sulton "Har bir adabiy asar kishilarning yashash sharoiti, xarakterlar, qahramonlarning ruhiyati va ularning to‘xtovsiz o‘zgarib turishiga, rivojiga aloqador sanoqsiz badiiy tafsillar yig‘indisidan iborat"[4] degan fikrlarni keltiradi. Ya’ni bir asardagi kichik detaldan tortib, yirik obrazlar ham shu davr sharoit va muhitidan kelib chiqib yoritiladi. Bizning Pakanamiz ham o‘zi yashayotgan muhitda o‘z sevgisiga yetishish uchun bo‘y-bast ham zarur ekanligi, uning qalbidagi orzusi bo‘lgan ish "ilojsiz" bo‘lsa-da, bu yo‘lda qilgan harakatlari kitobxon uchun juda qiziq.

Umuman olganda asar birgina inson ruhiyati talqiniga qaratilmagan, asar Pakana obrazi ortida butun insoniyatning ruhiyatining bir qismigina yoritilgan. Zeroki, ruhiyat cheksiz, o‘zgaruvchan, inson ruhiga bugun yoqqan ish, ertaga yoqmasligi mumkun. Shuning uchun ham bu asarda inson ruhiyatini yoritishda yozuvchi bir vaqtning o‘zida Pakana obrazi bo‘ldi, psixolog bo‘ldi va qator shaxslar ham bo‘ldi. Shuning uchun ham bu asarni "Inson ruhiyati o‘z orzusi orqali ochib berilgan asar" sifatida ko‘rishimiz

mumkun. Albatta bunday asarning dunyoga kelishi Mustaqillik tufayli. Yana bir “inson ruhiyati”ga tasnif bergan asarlar qatoriga “Shamolni tutib bo‘lmaydi” asarini ham kiritishimiz mumkun. Bu asar Nazar Eshonqulning kutubxonasida haqiqiy javohir sifatida tan olingan desak aslo mubolag‘a bo‘lmaydi. Asar bosh qahramoni - Bayna momo. Nazar Eshonqul o‘z asaridagi Bayna momo obrazi orqali insonning bir chigallikda qolgan ruhiyati, bu ruhiyat tutqinlikda bo‘lsa ham har doim qasos deya yashashini bizga ko‘rsatgan. Eng avvalo, nima uchun aynan ayol obrazi orqali “inson ruhiyati” talqin etildi? degan savolga duch kelamiz barchamiz. Shuni bilish lozimki, ayol har doim sadoqat ramzi, bu jihat ayollarning ruhiyatiga bot-bot singdirilgan. Ya’ni butun umri davomida Tersotaliklar uchun harakat qilgan Rayim polvonning ayoli Bayna momo “davr talabi” deb atalgan zanjirga o‘z oilasini qurbon qildi va u oilasi uchun qasos olishni lozim topdi. “Qasos” tuyg‘usi inson ruhiyatida hech qachon so‘nmaydigan tuyg‘ulardan biridir. Asar nomi ham biz uchun bir ramziy ifoda.

Ruhiyatimiz ham aynan “shamol” kabi, uni hech qachon tuta olmaymiz, ya’ni men har doim baxtliman deya olmaymiz. Sababi ko‘zlarimiz quvnasa ham, qalbimiz yig‘lashi mumkun. Ruhیات ham aslo inson aqliga bo‘ysunmaydi. Bayna momoning ham ruhiyatida bo‘shliq faqatgina ayovsiz qasos bilan to‘ldi. Adabiyotshunos olim U.

Normatov asar mohiyati haqida shunday deydi: “Yozuvchi asar qahramoni Bayna momoning uzoq davom etgan fojia, motamsaro, ayni paytda mardona hayot yo‘lini o‘ziga xos ohangda hikoya qiladi. Momo qismati bilan bog‘liq harakterli voqealar, u bilan qishloq ahli, olamon orasidagi ziddiyat bir-ikki detallar, shtrixlar, ixcham lavhalar orqali eslatiladi, hatto hikoyadagi eng jiddiy to‘qnashuv momoning eri va o‘g‘li qotili Zamon otboqardan qasos olishi, uni chavaqlab, qonli barmoqlaridan judo etish voqeasi sahna ortida yuz beradi”[5] Bu fikrlardan ko‘rinib turibdiki, inson ruhiyatida doimiy ziddiyat yuz berishi mumkin. Bayna momoning o‘g‘li va eri uchun olgan ayanchli qasosi ham aynan uning ruhiyatida yillar davomida bo‘shliq holatida bo‘lgan. Bu bo‘shliq faqatgina Zamon otboqar o‘limi bilan yakun topmagan, u shu ruhiyatdagi bo‘shliqni to‘ldirish uchun qishloq ahli bilan ham ziddiyatlarga borgan. Inson ruhiyatini tasvirlash qiyin. Sobiq Sho‘rolar davrining ayovsiz qilichi bilan Rayim

polvon va uning o'g'li boshi kesilgani, shu sababli Bayna momo tanib bo'lmas darajada o'zgargani, u qilgan ishlar aql va ruhiyat bir-biriga zid bo'lganda qilingani barchasi bizning ruhiyatimizga qattiq tasir qildi Bir qurbon ayol timsolida butun o'sha davr ayollarining ruhiyati ochib berildi. Oddiygina boshlangan shabada ham, kun kelib bo'ron bo'lishini kuzatamiz. Bayna momoning muhabbati ham eri va o'g'li o'limidan so'ng so'ndi. Ko'rinib turibdiki, ruhiyat har doim o'zgaruvchan va shiddatli. Ruhiyat jins tanlamaydi, yosh tanlamaydi, u butun bashariyatda hattoki endigina tug'ilgan go'dakda ham bor. Bir inson orqali 3 insonning yoki millionlab insonning ruhiyatini ifodalash mumkun. Nazar Eshonqul ham bizga Bayna momo obrazi orqali ayollarimizdagi nafratni, sadoqatni va muhabbatni ruhiyatimizga qattiq bog'langanini ko'rsatib bergan

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, mustaqillik davrida yaratilgan asarlarda inson ruhiyati bir qolip bilan emas, turli qolip bilan yaratilgan. "Pakananing oshiq ko'ngli" asarida inson ruhiyati ko'proq yumor bilan boyitilgan bo'lsa, "Shamolni tutib bo'lmaydi" asarida inson ruhiyati ziddiyatlar bilan yoritilgan. Aynan asar obrazlariga erkin talqin berish mustaqillik davri ijod namunalari ekanligini isbotlovchi dalil. Bu asarlarni o'qigan har bir kishi ruhiyatida sezilarli darajada o'zgarish bo'ladi. Chunki bu asarlar o'zbek adabiyotining eng nodir javohirlaridir.

### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Quronov.D. "Adabiyot nazariyasi asoslari" - T: Navoiy universiteti, 2018-yil 375-b
2. Erkin A'zam "Pakananing oshiq ko'ngli"
3. Umurov H "Adabiyotshunoslik nazariyasi"-T: Qodiriy nomidagi xalq merosi nashriyoti, 2004
4. Izzat Sulton. "Adabiyot nazariyasi"-T: "O'qituvchi" nashriyot-matbaa ijodiy uyi. 2005
5. Normatov U. "Umidbaxsh tamoyillar" Toshkent. Ma'naviyat. 2000